



**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**

**2022- YIL YANVAR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyatimiz korxonalari tomonidan 6 450,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,1 % ni tashkil etdi.



### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 2,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 7,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 24,2 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 7,3 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 802,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar

FHI,% da



2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 169,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,1 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar


82,8 %

2022- yil yanvar

80,1 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,6 % (5,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 85,6 % (88,8 %) va quyi texnologiyalisi – 5,6 % (5,3 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 1,7 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 66,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 79,0 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 106,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,3 % (2021- yil yanvar oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 104,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 7,4 % (2021- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 77,5 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Natriy gidroksidi (kaustik soda)**




**Suvsiz ammiak**



**Sement**



**Azot**



**Tvorog va tvorogdan mahsulotlar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**




2022- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 56,4 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan 139,3 % ga o'sgan), 1,5 ming m<sup>3</sup> azot (103,6 %), 450 tonna xlor (195,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	2021- yil yanvar oyiga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	305,0	154,9	50,8
Azot, ming m <sup>3</sup>	1,4	1,5	103,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	5 379,0	5 069,3	94,2
Sirka kislotali, tonna	450,0	484,0	107,6
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	10,5	12,9	122,7
Suvsiz ammiak, ming tonna,	40,5	56,4	139,3
Xlor, tonna.	230,0	450,0	195,7
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	5,8	8,1	138,7

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 80,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 5,4 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyida yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 79,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 110,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 4 084,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 28,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,7 (m) ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 37,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 119,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 141,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 7,4 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 109,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 106,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 48,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 144,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,3 % ni, fizik hajm indeksi 106,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 378,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 475,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 124,2 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1 080,2	1 132,6	52,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	438,6	559,6	121,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar	2022- yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5 500,4	5 213,8	-286,6
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	2 259,9	4 186,4	1 926,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 185,2 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 94,8 % ni tashkil etdi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 260,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar

45,3%

2022- yil  
yanvar

44,1%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar

54,7%

2022- yil  
yanvar

55,9%


*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,01 % (2021- yil yanvar oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.*

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 24,3 % ni, Navoiy shahri 23,3 % ni, Xatirchi tumani 12,8 % ni, Qiziltepa tumani 11,9 % ni hamda Navbahor tumani 9,0 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (158,7 %) hamda Navbahor tumanida (116,4 %) qayd etildi.*

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to'g'ri kelib Karmana tumanida 24,3 % shuningdek, Navoiy shahriga 23,3 %, Xatirchi tumanida 12,8 % ni, Qiziltepa tumanida 11,9 % ni tashkil etdi.*



232,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar

255,9 mlrd. so'm

2021- yil yanvar

260,6 mlrd. so'm

2022- yil yanvar



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

107,3 %

2021- yil

100,6 %

2022- yil

108,1 %

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumanida to'g'ri kelib, 29,7 % shuningdek, Navoiy shahrida 23,4 %, Navbahor tumanida 9,8 % ni, Xatirchi tumanida 9,7 % ni tashkil etdi.

**140,9** mlrd. so'm


2020- yil yanvar

**152,5** mlrd. so'm



2021- yil yanvar

**145,5** mlrd. so'm

2022- yil yanvar





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib, 23,1 % ni shuningdek, Karmana tumani 17,4 % ni, Xatirchi tumani esa 16,7 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



**Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 85,1 % ni, shuningdek, Karmana tumani 11,3 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,5 % ni tashkil etdi.*

**Navoiy vloyati**

2020- yil

4 075,9 mlrd. so'm

2021- yil

5 773,9 mlrd. so'm

2022- yil

6 450,8 mlrd. so'm



2020- yil


101,1 %

2021- yil

108,0 %

2022- yil

107,7 %



FHI, % da

mlrd. so'm

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 318,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Xatirchi tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (97,9 %), Nurota tumanida (95,7 %), Navbahor tumanida (52,4 %) tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Navoiy shahrida (1,4 %), Karmana (13,3 %), Qiziltepa (33,5 %), Navbahor (52,4 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatimizda 3 662 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 774 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,1 %) Navoiy shahriga, 604 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 473 tasi (12,9 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Jami faoliyat yuritayotgan**

2020-yil

2 896 dona

2021- yil

3 309 dona

2022- yil

3 662 dona



**Jami yangi tashkil etilgan**

2020- yil

72 dona

2021- yil

59 dona

2022- yil

49 dona

yangi tashkil etilgan

faoliyat yuritayotgan